



## O‘YINLAR VOSITASI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARIDA KASBIY QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH – DIDAKTIK ZARURIYAT SIFATIDA

*Rasulova Z.*

*Guliston davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim uslubiyati kafedrasida katta o‘qituvchilari*

**Tayanch so‘zlar:** ta‘lim, tizim, o‘quvchilar, barkamol avlod, usullar, o‘yinlar, jamiyat, muhit, maktab, global o‘zgarishlar, intellekt, tarbiyalash.

**Ключевые слова:** образование, система, учащиеся, зрелое поколение, методы, игры, общество, среда, школа, глобальные изменения, интеллект, воспитание.

**Key words:** system, students, mature generation, methods, games, society, environment, school, global changes, intelligence, education.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta‘minlash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, Xalq ta‘limi tizimida ham bir qancha o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ta‘lim tizimidagi bu islohotlar barchasi jamiyatga kerakli raqobatbardosh kadrlarni shakllantirishga qaratilgan. Muhtaram Prezidentimiz ta‘kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoniyati tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi” {1}.

Demak, ta‘lim-tarbiya berish maktab ostonasidan boshlanar ekan, o‘quvchilarni har jihatdan rivojlantirishga qaratilgan ta‘lim-tarbiya muhitini yaratish zarurdir. Ta‘lim jarayonidagi bir qancha islohotlar qabul qilinishi, barkamol avlod ta‘lim-tarbiyasi uchun qaratilganligidadir. So‘nggi vaqtlarda



ham dissertatsiya tadqiqotlarida, olimlar va amaliyotchilar maqolalarida ham o‘yinlar nazariyalari keng yoritib berilgan. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish uchun o‘qituvchilar quyidagilarga e’tibor qaratish kerak:

-ta’lim muassasalarida zamonaviy texnika vositalari bilan darslarni tashkil etish ta’lim oluvchilar intellektini rivojlantiradi:

-Turli xil to‘garak, ijodiy uchrashuvlar, sayohatlar, badiiy kechalar faoliyat ko‘rsatishi va bolalarning ularda qatnashish imkoniyatini yaratish:

-shaxslararo o‘zaro muloqot o‘rnatishning uzluksizligi va oilada iliq psixologik muhitning yaratilishini ta’minlash:

-turli televizion viktorinalar, bahslar, tadbirlar, zukkolik, ijodkorlik, tezkorlik bo‘yicha musobaqalar tashkil etish va ularda ishtirok etish imkoniyatini yaratish:

-ortiqcha informatsiya, xabarlar ko‘lamini kamaytirish (video, aftomat o‘yinlar, kompyuter o‘yinlar), zararli odatlar bilan shug‘ullanishning oldini olish

O‘yin (ko‘ngil ochish, dam olish, tarbiyalash maqsadida qilinadigan erkin harakat yoki mashg‘ulot, boshqalar bilan musobaqa qilish uchun ma’lum qoidalar asosida o‘tkaziladigan mashg‘ulot) deb tavsiflanadi. So‘nggi yillarda o‘yinlar nazariyasi orqali bolalarga ta’lim-tarbiya berish muhimligi haqida bir nechta tadqiqot ishlari amalga oshirildi, asta-sekinlik bilan u tadqiqot obyektiga aylanmoqda. O‘yinlar nazariyasidan kelib chiqib fikrlar ekanmiz, u o‘quvchilarni to‘liq namoyon ettiruvchi vosita deb ham atash mumkin.

Maktab o‘quvchilarining har qanday sohaga oib bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni kasbga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish zarur hisoblanadi. Pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirilgan har qanday faoliyat o‘quvchi shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, irodaviy, kasbiy tushunchalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi, o‘quvchilarni bilim olish va mustaqil fikrlarini bayon qilishga ruhlantiradi. Chunki bolada tasavvur uyg‘otilsagina fikr paydo bo‘ladi. O‘quvchilar ongidagi tasavvur darslar jarayonida o‘yinlar orqali rivojlanib, takomillashib boradi. O‘quvchilarda mustaqil fikr hosil qilish, qaror qabul qila olish, o‘zlaridagi qobiliyatni namoyon etish, taajjublantirish, ularni o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga qiziqtirish, va ongli tarzda yaratuvchilikka undashda o‘yinlar muhim ahamiyatga ega.

Muqaddas dinimiz qarashlarida ham bolada tushuncha hosil etib, keyin tarbiyalash ahamiyatli ekanligi aytib o‘tilgan. Xalq pedagogikasida ham vosita

sifatida o'yinlardan foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Chunki o'yinlar o'quvchilar uchun bilim olishning eng qulay shakli hisoblanadi. O'quvchilarda odat va ko'nikmalarni hosil etishda ham o'yinlar asosiy vosita hisoblanadi.

Ayniqsa inson faoliyatining dastlabki bolalik va o'smirlik davrida o'yin faoliyatning asosiy turlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bu davrda o'yin faoliyati o'qish faoliyati bilan uyg'unlashadi, uning tarkibiy qismiga aylanadi. O'yin orqali o'quvchilar yangi ko'nikmalarni hosil etishga va ilgari o'rgangan ma'lum elementlarni takomillashtirishga yordam beradi. Shu orqali o'rganilgan ma'lum sohaga oid bilimlar mustahkamlanib boradi. O'yinli ta'lim jarayonida faol diqqat rivojlanadi, xotira tarbiyalanadi, belgilangan o'quv materiallar takomillashadi, o'quvchilar erkin ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadi va shu orqali faoliyatning o'sib borishi uchun zarur bo'lgan tabiiy va ijtimoiy muhit paydo bo'ladi. O'quvchilarda foydali odat va axloq masalalarining to'planib borishiga imkon yaratadi. Shuning uchun ham, ta'limning aksariyat vazifalari didaktik o'yinlar yordamida amalga oshiriladi. O'quvchilarda ongli munosabat, burch va ma'suliyat paydo bo'ladi, harakat takomillashib boradi, mustaqil fikr, tanqidiy-tahliliy qobiliyat, kreativlik sekinlik bilan takomillashadi.

Pedagogik atamalar lug'atida "ishchan o'yinlar"ga shunday ta'rif berilgan: "Ishchan o'yinlar – o'quvchini o'yin asosida faollashtirish va bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yo'naltirilgan ta'lim metodi"dir [2]. Bu jarayonda o'quvchilar faollashish bilan bir qatorda, ular orasida kasbga oid elementar bilimlar takomillashib boradi. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik «noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan holatlarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik»ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik esa mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularning amalda yuqori darajada qo'llay olinishi hisoblanadi. Demak bu tushunchalardan kelib chiqqan holda, o'quvchilarda ham aynan o'yinlar orqali ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlarda, tanqidiy, tahliliy vazifalarda o'z fikrini isbotlashga o'rgatish, ma'lum kasbiy bilim elementlarini takomillashtirish zarurdir. {3}

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning ma'lum qobiliyatlari, istedodlari rivojlanadi, ijtimoiy, ijodiy faoliyat tajribasini o'zlashtiradilar. Bunday ta'lim jarayoni sub'ektlarining ijodiy faoliyatini shakllantiradi. Ijtimoiylashish jarayoni asosida o'quvchilarning jamiyat va



hayotga munosabatlari, hayotiy tajribalari, ma'lum bir sohaga oid qarashlari hosil bo'ladi, e'tiqodlari rivojlanadi va uyg'unlashadi. Bu holatda ham o'yin faoliyati ustunlik qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni nazarda tutadiki, ko'plab pedagoglar tomonidan o'yinning o'quvchi hayotida muhim o'rin egallashi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ajdodlarimiz bolalarni tushunish uchun ularning o'yin jarayonlarini kuzatish lozimligini uqtirganlar. Zardushtiylik dinida ham bolalarga muhofaza etishni, yashash sirlarini o'yinlar orqali ko'rsatib berilgan, qabila sardorlarini aniqlab olishgan va yetakchilik vazifalarini o'rgatishgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'quvchilar uchun qulay vaziyatni vujudga keltirish, ularning o'z hissiy olamlarini namoyon qilishlariga imkoniyat yaratish uchun o'qituvchi ta'lim jarayonida o'yinlardan unumli foydalana olishi kerak. Kattalardan farqli tarzda o'quvchilar o'zlarining muloqot imkoniyatlari, ishchanliklari, sinfdoshlariga bo'lgan munosabatlari, lug'at boyligidagi so'zlar farqini ular bilan amalga oshiradigan o'yin yordamida namoyon qiladilar. Shunday ekan har bir boshlang'ich sinf o'qituvchilari ijtimoiy-pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham ta'lim berish jarayonini prognozlash malakasiga ega bo'lishi lozim hisoblanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022y. 12. Xalq so'zi gazetasi 2022y 12
2. Djurayev R.X va boshqalar Pedagogik atamalar lug'ati – T.: "Fan" nashriyoti 2008y
3. Ruvinskiy Tarbiyaviy ishlar metodikasi T/: O'qituvchi 1991y

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o'quvchilarga o'yinlar nazariyasiga doir ilmiy manbalar asosida o'yinlar nazariyasining mazmuni va mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, pedagogik adabiyotlarni tahlil etish natijasida o'yinlar orqali o'quvchilarning kasbga oid bilimlarini rivojlantirish masalalari yoritib berilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье содержание и сущность теории игр раскрываются читателям на основе научных источников, связанных с теорией игр. Также в результате анализа педагогической литературы освещены вопросы развития профессиональных знаний студентов посредством игр.

#### SUMMARY

In this article, the content and essence of game theory are revealed to readers on the basis of scientific sources related to game theory. Also, as a result of the analysis of pedagogical literature, the issues of developing professional knowledge of students through games are highlighted.